

Atoqli rassom tavalludi nishonlanadi



Ro'zi Choriyev 1931 yilda Surxondaryo viloyatining tog'lik qishlog'i Poshxurdda tug'ilgan bo'lib, ota-onasidan yoshlikdan ajrab bolalar uyida tarbiyalanadi. Ro'zi Choriyev 1959 yilda Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida G.Akbalyan, V.Petrov va boshqa mohir ustalar qo'lida tahsil oldi. 1965 yilda SSSR Badiiy Akademiyasining Leningraddagi Repin nomli Rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutini tamomlaydi. 1966-1973 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida yosh ijodkorlarga ustozlik qilgan. 1967 yil O'zbekiston Yoshlar qo'mitasi mukofotiga sazovor bo'ladi. 1990 yil Respublika Yoshlar ijodiyoti markazi badiiy rahbari sifatida faoliyat yuritgan.

1963-2004 yillarda Respublikamizda va xorijda o'tkazilgan barcha ko'rgazmalarda ishtirok etib kelgan. 1969 va 1982 yillarda Toshkent shahrida, 1971 yil Termizda, 2000 yilning kuzida Turkiyaning Istanbul shahridagi ko'rgazmalari shular jumlasidandir.

Serqirra va samarali faoliyati uchun Ro'zi Choriyev 1975 yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoniga, 1983 yil "Surxondaryo zamini va odamlari" turkum asarlari uchun Hamza nomidagi Davlat mukofotiga va 1987 yil O'zbekiston Xalq rassomi unvoniga sazovor bo'lgan. Ro'zi Choriyevning betakror iste'dodi va O'zbekiston tasviriy san'atiga qo'shgan hissasi uchun 1998 yil "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan.

Ro'zi Choriyev Toshkent shahrida 2004 yil 18 fevralda olamdan o'tadi.

2007 yil poytaxtimizdagi Milliy san'at markazida "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tashabbusi bilan O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev asarlari ko'rgazmasi tashkil qilindi.

Yurtimiz tasviriy san'atiga ulkan hissa qo'shgan atoqli rassom xotirasini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021 yilda Surxondaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatiga Ro'zi Choriyev nomi berildi hamda Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yiliga bag'ishlab mazkur ta'lim muassasasiga rassom haykali o'rnatildi.



RO'ZI
CHORIYEV
90 YILLIGI

DASTUR

25-26.XI.2021

Atoqli rassom tavalludi nishonlanadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 iyundagi "O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yiliga keng nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda qator vazirlik va idorlar hamkorligida 25-26 noyabr kunlari Termiz shahrida atoqli rassom Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yiliga nishonlanadi.